

SIYOSIY JARAYONLARNING MAKON VA ZAMON OMILLARI

*Bo'riqulova Charos Shavkat qizi
O'zMU 2-kurs Siyosatshunoslik yo'nalishi talabasi*

ANNOTATSIYA

Makon va zamon - borliqning umumiyligi yashash shakllari, fazo dunyoniga tashkil etuvchi ob'yektlar va ulardagi tarkibiy nuqtalarning o'zaro joylashish tartibi, ko'lami va miqyosini ifoda etsa, vaqt dunyoda sodir bo'luvchi xodisa va jarayonlarning ketma-ket ro'y berishi va davomiyligini ifodalaydi. Fazo va vaqtning tabiatini hamda mohiyati haqida qadimdan faylasuflar xilma-xil nuqtai nazarni ilgari surgan. Ularni umumlashtirib 2 ga: substansial va relyatsion konsepsiya ajratish mumkin. Ushbu tezisda, mazon va zamon tushunchasi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Makon, zamon, fazo, vaqt, tushuncha, davr, xususiyat, substansial konsepsiya

Hozirgi shiddatila raivojlanish davrda, ko'plab davlatlar dunyo hamjamiyati orasida o'z-o'rmini topish uchun iqtisodiy-siyosiy jihatdan mukammalashishga harakat qiladi. Ayniqsa O'zbekiston kabi aholisining asosiy tarkibini yoshlar tashkil etadigan davlatlarning taraqiyotini amalga oshirishda yoshlarga katta e'tibor beriladi. Xususan mamlakatimiz tarqqiyotga erishishida hartamonlama o'ylangan va istiqboliy strategiyalar amalga oshirilmoqda. Bu strategiyalarda siyosiy jarayonlarni to'g'ri va oqilonalik bilan amalga oshirish uchun ham katta qadamlar qo'yilmoqda. Siyosatni to'g'ri amalga oshirish bu millatni, xalqni va davlatni barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'ladi. Siyosatni to'g'ri olib borish uchun esa siyosiy ilmni yuksakdarajada izchillik bilan o'rgatilishi kerak.

Siyosiy ilmni rivojlantirish, izlanishlar olib borish, albatta katta mahoratlari tashkil qiladi. Bunday mahoratlarni tashkillashtirish va o'zlashtirish juda muhim. Davlatimiz tomonidan bu muhim masalaga katta e'tibor qaratilgan. Bu mahoratlarni dalili sifatida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston - strategiyasi" kitoblaridagi quydagi so'zlarini yodga olsak bo'ladi: "Taniqliy siyosatchi, Parlamentlararo ittifoqning Bosh kotibi Martin Chungong boshliq rasmiy delegatsiya mamlakatimizga tashrif buyurganida u kishi bir fikrni afsus bilan ta'kidladi. Ya'ni, sayyoramiz aholisining yarmidan ko'pini 30 yoshgacha bo'lган insonlar tashkil etsada, butun dunyo bo'yicha yosh deputatlarning ulushi 2,6 foizga ham yetmas ekan. Oliy martabali mehmon O'zbekistonda bu ko'rsatkich 6 foizdan oshganini yuqori baholadi" [1]. Prezidentimizning bu so'zlari orqali davlatimizning asosiy kuchlaridan bir bo'lgan yoshlarimiz siyosiy jarayonlarga befarq emasliklari va siyosiy jarayonlarni o'rganishda amaliy holatlarga katta e'tibor berishyotgani yaqol ko'zga ko'rindi.

Siyosiy fanlarni rivojlantirish orqali biz siyosiy ongni mustahkam immunitet bilan boyitishimiz va jahondagi eng yangi siyosiy jarayonlarni bilib olish va ularni tahlil qila olish imkoniyatiga ega bo'lishimiz mumkin. Siyosiy fanlarni rivojlantirish va siyosatshunoslikni yoshlar e'tiboriga tushirish va jalb qilishda quydagi jarayonlarni amalga oshirish lozim deb hisoblayman. Birinchidan, bunday ilm -fanni o'zlashtirish uchun fan taraqiyotining eng so'ng yangiliklarni o'zlashtirishimiz. Ikkinchidan, yoshlar orasida siyosiy kitobxonlikni vujudga keltira olish va kitob o'qsh jarayonini kengaytirish. Uchinchidan, diniy va dunyoviy fanlarni mafkuraviy jihatdan to'g'ri va izchil tahlil qilgan holatda siyosiy fanlar tizimida o'rgatish. To'rtinchidan, mamlakatimiz miqiyosida amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlarni o'z vaqtida yetkazib berish va tahlil qilish. Besinchidan, Ommaviy axborat vositalariga yanada ko'proq ochiqlik va erkinlik berish. Bu jarayonlarni amalga oshirish muhimligining sabablaridan biri O'zbekiston axolisining 60 foizi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qilib borayotgan davlat hisoblanadi. Bu esa yoshlarimiz siyosiy jarayonlarga qo'shlishi juda muhim ekanligini bildiradi. Yuqoridagi sanab o'tilgan jarayonlarni amalga oshirilishi siyosiy fanlar tizimiga yoshlarni jalb qilish va ularni yuqori kadrga aylanishiga katta hissa qo'shadi.

Fanda uzoq davr mobaynida fazoni vaqtadan ajratib tushunish hukmronlik qilib keldi. Shu jixatdan vaqtga nisbatan dinamik va statistik qarashlar ham mavjud. Dinamik qarash bo'yicha, vaqtning faqat hozirgi zamonigina real mavjud, o'tmis o'tib ketgan, kelajak esa hali yo'q. Statistik qarash vakillarining fikricha, vaqtning barcha lahzalari bir yo'la, yaxlit holda, bir vaqtda mavjuddir, vaqtning lahzalarini har bir sub'yekt o'z boshidan kechiradi va unga go'yoki vaqt oqib o'tayotgandek tuyiladi. XX-asr boshlarida A. Eynshteyn tomonidan nisbiylik nazariyasining yaratilishi fazo va vaqtning o'zaro chambarchas bog'likligi, fazo va vaqt sistemaning harakat tezligi bilan, vaqt-fazo strukturasingning modda zichligi bilan bog'likligi haqidagi fikrlar tabiiy-ilmiy va nazariy isbotini topdi.

Bundan ilgariroq yaratilgan noyevklid geometriyasi tamoyillari bilan dunyo elektrordinamik manzarasining bog'lanishi fazoning strukturasini haqidagi tabiiy-ilmiy tasavvurlarni yanada kengaytirdi. Fan yutuqlari fazo va vaqtning xususiyatlari mikro, makro va megadunyolarda bir-biridan farq qilinishini isbotladi. Hozirgi zamon fanlari aniqlab bergen fazo va vaqtning xususiyatlarini 2 turga ajratish mumkin. 1-turga tegishli o'lchov asboblari (lineyka, ruletka, soat kabilar) bilan o'lhash mumkin bo'ladigan, turli hisob sistemalarida turlicha namoyon bo'ladigan nisbiy xususiyatlari kiradi va ular metrik xususiyatlar deb ataladi. Bunday xususiyatlarga fazoning ko'lami, bir jinsliligi, izotropliligi, egilganligi, vaqtning bir jinsliligi, bir xilligi, davomiyligi, anizotropligi va boshqa kiradi. 2-turdagi xususiyatlari fazo va vaqtning tub mohiyatiga aloqador bo'lgan, barcha hisob sistemalarida bir xilda namoyon bo'ladigan, o'zgarmas, fundamental xususiyatlardir. Ular topologik xususiyatlar deb atalib, fazoning

uzluksizligi (yoki diskretligi), o'lchamliligi, tartiblanganligi, kompaktligida, vaqtning esa uzluksizligi, bir o'lchovliligi, orqaga qaytmasligi, chiziqli bog'langanligida va boshqada namoyon bo'ladi.

Makon va vaqtning yana shunday xususiyatlari ham borki, ular barcha hisob sistemalarida, materianing barcha struktura darajalarida, mikro dunyoda ham jamiyatda ham bir xilda saqlanadi. Ular makon va vaqtning tub sifatiy jihatlarini ifodalovchi fundamental xususiyatlar hisoblanadi. Bunday xususiyatlarni topologik xususiyatlar deyishadi. Topologik xususiyatlar moddiy aloqadorliklarning ichki, tub sifatiy jihatlarini ifodalaydi. Topologik xususiyatlarning o'zgarishi bilan moddiy ob'ektlarning tuzilishida tub sifatiy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Makon va vaqt materiya strukturasidagi o'zaro aloqadorliklar majmuasini aks ettirar ekan, bu aloqadorliklarning turli xil shakllari, turli xil shakldagi harakat va unga bog'liq bo'lgan makon-vaqt shakllarining vujudga kelishiga sababchi bo'ladi. Biz yuqorida faqat fizik makon va fizik vaqt haqida to'xtaldik. Hozirgi zamonda borliqning turli tashkiliy struktura darajalariga aloqador bo'lgan fizik, ximiyaviy, geologik, biologik, fiziologik, ijtimoiy (sotsiologik), psixologik makon va vaqt haqidagi konsepsiylar ham yaratilmoqda. Bunday konsepsiyalarda olamning tuzilishi jihatdan xilma-xilligi va birligi, ko'p qirraliligi va cheksizligi, murakkabligi va nihoyasizligi asoslanmoqda. XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida nazariy fizika, topologiya, chiziqli algebra, kvant fizikasi, qora tuynuklar fizikasi, relyativistik kosmologiya fanlarining rivojlanishi makon va vaqt haqidagi tasavvurlarni jiddiy o'zgartirdi. Ayniqsa, konseptual makon (vaqt)ni informatsion texnologiya vositalarida modellashtirish yo'llari osonlashgach, makon va vaqtning turli-tuman modellarini tadqiq etish imkoniyatiga keng yo'l ochildi. Bu tadqiqotlar olamdagи yagona, eng umumiy, universal va fundamental aloqadorlik - bu makon-vaqt aloqadorligidir, deb xulosa chiqarishga to'liq asos berdi.

Xulosa qilib aytganda, fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini ifoda etsa, topologik xususiyatlari esa tub sifat jihatlarini aks ettiradi. Shu sababli falsafada fazo va vaqtning metrik xususiyatlari — miqdoriy xususiyatlar, topologik xususiyatlari esa sifatiy xususiyatlar deb ataladi. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari o'zgarganda voqeliqda jiddiy strukturaviy o'zgarishlar ro'y bermasligi mumkin, topologik xususiyatlarning o'zgarishi esa voqelikni, albatta, tubdan strukturaviy o'zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Moddiy dunyoning tuzilishi va evolyutsiyasi haqidagi zamonaviy fan, kitobda. Falsafa asoslari, jild, 2004 yil;
- To'rayev B. O., Vaqt muammolari, 2000 yil;
- To'rayev B. O., Kosmik. Vaqt. Rivojlanish, 1992.